MULTIDISCIPLINARY JOURNAL: FUNDAMENTAL RESEARCH SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 02. ISSUE 09. SEPTEMBER 2026.
ResearchBib Impact Faktor: 13.943 ISSN: 3060-513X

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida o‘rnak ko‘rsatgan pedogoglarga nisbatan ustama ballarini belgilashda qaratilishi lozim bo‘lgan muhim jihatlar va mavjud muammolar.

Raximova Muyassar Quvondiqovna
Xorazm viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi Urganch tuman 32-son umumta’lim maktabi ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annatatsiya : Ushbu maqolada : milliy qadriyatlar va milliy g‘ururning ta’lim jarayonga singdirilib borilishi ,O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 823-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-oktabrdagi 662-sonli qarori mazmun mohiyati hamda sinfdan tashqari belgilanadigan ballarning elektron bazasini shakllantirish borasidagi qarashlar berilgan.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar , milliy g‘urur, sinfdan tashqari ishlar, iqtidorli va bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlash prinsplari, milliy qadriyatlar bazasi.

Kirish: Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida ham katta yutuqlarga erishilmoqda. Aynan ,ma’naviyat sohasida prezidentimiz tashabbuslari bilan “Turon teatr” tanlovlari, “Iqtodor” ansamllari,”Jadidlar izidan “ ko‘rik tanlovlari, “Zakovat” intellektual o‘yinlari , “Besh tashabbush” olimpiadalari “Milliy qadriyatlar targ‘ibotchisi” tanlovlarining tashkil etilishi yosh avlodning milliy g‘urur va milliy ong tushunchalarini hamda vatanga muhabbat hislatlarinini o‘zida mujassam qilish uchun muhim ahamiyatli jarayonlarining bir qismidir.

Maktab ta’lim tizimida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarga direktor jamg‘armasidan ustamalar to‘lash borasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 823-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-oktabrdagi 662-sonli qarori qabul qilingan bo‘lib, ushbu qaror nizomida pedogog xodimlarning ustama olish jarayonida belgilangan tartiblar aniq ma’lumotlar talab qiladi. Qarorda Kreativlikni rag‘batlantirishga qaratilgan tadbirlarni (fotoko‘rgazmalar, hunarmandchilik, musiqa va teatr sahnalari va boshqalar) tashkil etgan bo‘lsa 3 ball, O‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish, mulohaza bildirish, tanqidiy va tahliliy yondashish ko‘nikmalarini

rivojlantiruvchi loyihalar va qo‘shimcha mashg‘ulotlar olib borsa 5 ball, o‘quvchilarni izlanishga undovchi qo‘shimcha mashg‘ulotlarni (o‘quv yili davomida iqtidorli va bo‘sh o‘zlashtiruvchilar bilan) olib borsa 10 ball belgilangan . Qaror mazmuniga ahamiyat qaratsak, agar birinchi ustunda va ikkinchi ustunda keltirilgan tadbirlarni iqtidorli va bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan o‘quv yili davomida amalga oshirsa 10 ball belgilanadi degani emasmi? Lekin sinfdan tashqari qilingan ishlarni belgilash jarayonlari bugungi kunda ko‘plab maktablar uchun muammoli vaziyatlarni yaratib qolmoqda. Bu borada ayrim mutaxassislar faqatgina iqtidorli va bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlangan hujjatgina asos bo‘la oladi deb baholamoqda. Bu esa ko‘pchilik pedogog hodimlarda norozilik kayfiyatini keltirib chiqarmoqda. Masalan, faqat “Iqtidorli” yoki “Bo‘sh o‘zlashtiruvchi” o‘quvchilar bilan haftasiga bir soat to‘garak tashkil qilgan (nomiga) ustoz bilan yil davomida tashkil qilinishi belgilangan ma’naviy tadbirlarda faol ishtirok qilib , tanlovlarda doimiy faoliyat olib borayotgan, iqtidorli o‘quvchilarning ishlarini OAVlarida (TV,radio, gazeta, jurnallarda) yoritib kelayotgan ustozlar bilan bir xil ballga ega bo‘lishi mehnatkashga mehnat qabilidagi jarayonga teng bo‘lib qoladi. Natijada esa , ma’naviy sohaning oqsashiga olib kelish xavfi yuzaga keladi.

Ma’naviyat millatning ko‘zgusidir,shunay ekan mavjud muammoning yechimi sifatida raqamlarsiz hayotimizni tasavvur qilolmaydigan bugungi kunda ushbu tizimning ham elektron shaklda to‘ldirilib borilishi masalaning ijobiy hal qilinishiga olib kelinishi mumkin deb hisoblayman. To‘garaklarga jalb qilishda pedogog uchun alohida elekrton sahifa ochilib, o‘tkazilgan tadbirlardagi yutuqlari : Sertifikat, Diplom, Faxriy yorliqlari , muayyan pedagogga badiiy tadbirlarning yuklatilganligi to‘g‘risidagi maktab direktorining buyrug‘i aniq, ravshan ko‘rinib turishi ,hech kim rad qilolmaydigan yoki o‘zboshimchalik bilan yuklanmaydigan holatda bo‘lishi, to‘garakka jalb qilingan har bir o‘quvchi face ID orqali (bu borada ayrim toyifadagi o‘quvchilar uchun yaratilgan to‘garak jarayonlari maktab vazifasini ham o‘tab berdi) davomat qilinishi maktablarda ma’naviy ishlarning yanada samarali tashkil qilinishiga olib keladi. To‘g‘ri , bu tizimni shakllanish borasida ayrim tushunmovchilik va norozichiliklar bo‘lishi mumkin,lekin bu o‘zgarish barcha pedagog xodimlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish

ko‘nikmasini rivojlntiradi. Shu bilan birga ,turli xil korrupsion holatlarning ham oldi olinadi.